

Uzbekistan Airways 2025 Korea Night B2B Travel Connect tadbirida: Koreya Respublikasi bilan aloqalarni mustahkamlash

2025 28 Noyabr

Uzbekistan Airways Koreya turizm tashkiloti (Korean Tourism Organization) tomonidan tashkillashtirilgan turizm sohasidagi muhim tadbir — 2025 Korea Night B2B Travel Connect'da faol ishtirok etdi.



Uchrashuv davomida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan, xususan, O'zbekistondan Koreya Respublikasiga yo'lovchi oqimining barqaror o'sib borayotgani qayd etildi. Ishtirokchilar turizmning asosiy yo'nalishlari: tibbiy va ta'lim dasturlari, shuningdek, o'quvchilar uchun yozgi ta'til paytida bilim beruvchi maktab lagerlarini tashkil etishga bag'ishlangan qator muzokaralar o'tkazdilar.



Uzbekistan Airways aviatashuv sohasidagi keng imkoniyatlarini, shuningdek, O'zbekistonning yuqori turizm salohiyatini taqdim etdi. Aviakompaniya hamkorlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan, butun dunyo bo'ylab qulay aloqani ta'minlovchi interlayn va kod-sher aviaqatnovlariga alohida e'tibor qaratildi.





Tadbir yetakchi turizm kompaniyalari vakillari bilan samarali B2B-uchrashuvlarni qamrab oldi. Tadbirning eng yorqin lahzasi Toshkent-Seul-Toshkent yo'nalishi bo'yicha ikkita aviachipta o'yini bo'ldi. Bu ishtirokchilar orasida katta qiziqish uyg'otdi.





Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Toshkent-Seul-Toshkent yo'nalishida Boeing 787 Dreamliner rusumli shinam avialaynerlarda har kuni parvozlarni amalga oshiradi va yo'lovchilarga yuksak darajadagi xizmat hamda ishonchlilikni taklif etadi.